

## ZARDUSHTIYLIK DINI BILAN BOG'LIQ AN'ANA VA MAROSIMLAR

*Azamova Sitora Ayonovna*

*SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

*SHDPI Tarix yo'nalishi 2-kurs*

*talabasi Aliqulova Yulduz*

[aliqulovayulduz575@gmail.com](mailto:aliqulovayulduz575@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zardushtiylik dinining asosiy an'analarini va marosimlari haqida bat afsil ma'lumot berilgan. Qadimiy din sifatida Zardushtiylikning asosiy g'oyasi – ezgulik va yovuzlik o'rta sidagi kurashning mohiyati ochib beriladi. Dinning muhim ramzi bo'lgan olovga sig'inish, Navro'z bayramining diniy ildizlari, tozalash marosimlari, o'lim bilan bog'liq an'analar va ruhlarni xotirlashga bag'ishlangan Farvardigan marosimi keng yoritilgan. Maqolada ushbu an'analar Zardushtiylikning axloqiy va falsafiy asoslari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Materiallar tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda taqdim etilib, o'quvchiga bu qadimiy dinding madaniy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Zardushtiylik, Avesto, ezgulik va yovuzlik, olovga sig'inish, Navro'z bayrami, mehrjon bayrami, Gatha o'qish, Dakmha(sukut minorasi).

Zardushtiylik – insoniyat tarixidagi eng qadimiy va falsafiy jihatdan boy dinlardan biridir. Miloddan avvalgi 1-mingyillikda yashagan Zardusht (Zaratushtra) tomonidan asos solingan bu din o'z davrida jamiyatga axloqiy tamoyillar va ezgulik tushunchalarini olib kirgan. Zardushtiylikning asosiy g'oyasi ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rta sidagi kurash bo'lib, bu g'oya inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda insonning yaxshi niyatları, so'zlari va ishlari orqali olamni yaxshilik tomon o'zgartirishga chaqiriladi. Bu din nafaqat diniy, balki

madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning an’ana va marosimlari bugungi kunda ham bir qator jamiyatlarda saqlanib qolgan. Masalan, Navro‘z bayramining ildizlari Zardushtiylikka borib taqaladi. Mazkur maqolada Zardushtiylik dinining asosiy an’analari va marosimlari, ularning mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu qadimiy dinning hozirgi davrdagi o‘rni va madaniy meros sifatidagi qimmatini ochib berish maqsad qilib qo‘yilgan.

Zardushtiylik – dunyoning eng qadimiy dinlaridan biri bo‘lib, uning asoschisi bo‘lgan Zardusht (Zaratushtra) taxminan miloddan avvalgi 1-ming yillikda yashagan. Bu din o‘zining falsafiy asoslari va marosimlari bilan boshqa dinlardan ajralib turadi. Zardushtiylikda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash asosiy g‘oya sifatida qabul qilinadi. Dinning muqaddas kitobi – "Avesto" insonning ezgu ishlari,adolat va to‘g‘rilik yo‘lida harakat qilishini targ‘ib qiladi. Zardushtiylik an’analari va marosimlari uning asosiy e’tiqodlariga mos ravishda shakllangan.Zardushtiylikda asosiy an’ana va marosimlar Olovga sig‘inish Zardushtiylikda olov muqaddas hisoblanadi va u ezgulik va poklikning timsoli deb qaraladi. Olov ibodatxonalarda markaziy o‘rin egallaydi. Olovga qarshi hurmat bilan qarash va uni hech qachon o‘chirmaslik Zardushtiylikning asosiy qoidalaridan biridir.[4] Endi esa tadqiqotning asosiy muammosi zardushtiylik urf-oatlari va marosimlari hamda ularning o‘zbek xalqi turmush tarzida saqlanib kelayotgan ko‘rinishlarini tahlil qilamiz. Bulardan biri Navro‘z bayrami Zardushtiylik an’anasidan kelib chiqqan qadimiy bayram bo‘lib, yangi yilning boshlanishi va bahorning kirib kelishini nishonlaydi. Bu kun ezgu ishlarga bag‘ishlangan bo‘lib, odamlar o‘z uylarini tozalashadi, bayram dasturxoni yoziladi va atrof-muhitga hurmat ko‘rsatiladi.[2]Taziya marosimlari Zardushtiylikda o‘lim va keyingi hayotga katta e’tibor beriladi. O‘lim marosimlarida jasadni yerga yoki suvga qo‘yish taqiqlanadi. Shu sababli, o‘liklarni "dakhma" deb ataluvchi maxsus joylarga qo‘yish an’analari mavjud bo‘lib, bu orqali jasad yovuzlik unsurlariga aylanmasligi ta’minlanadi. Ritual tozalash tozalik Zardushtiylikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.[1]

Umuman olganda, zardushtiyarning o'limdan keyingi ikkinchi hayoti to'g'risidagi konseptual qarashlari garchi Gohlarda uchramasada "Vendidot" qismida juda yaxshi bayon etilgan. Unda bayon qilinishicha, marhumlarga tegib ketish natijasida makrux bo'lgan kiyimlarni quyosh nurida poklash lozim bo'lgan.[7] Suv va olov tozalikni saqlash vositasi sifatida muqaddas sanaladi. Ruhoniylar maxsus marosimlarda odamlarni ma'naviy va jismoniy jihatdan tozalashga yordam beradi.[3]

Farvardigan marosimi bu marosim Zardushtiylikda o'lganlarning ruhlarini xotirlashga bag'ishlangan. Ushbu marosim davomida oila a'zolari uylarida maxsus olov yoqib, "yaxshi ruhlar"ni chaqirishadi. Bu marosimda o'lganlarning hayoti va ezgu ishlari yodga olinadi . Zardushtiylikda oilani saqlash va uni muqaddas deb bilish muhim qadriyat hisoblangan. Nikoh marosimlari poklikni va yaxshi niyatlarni ifodalaydi. Marosim paytida olov yoqilib, er-xotin birgalikda olov oldida qasamyod qiladi. Bu oila muqaddasligi va nikohning ajralmasligini ko'rsatadi.[2]

„Avestoda” qayd qilinishicha, erkak kishi avvalo uylanishi uchun moddiy va ma'naviy tomondan tuq va baquvvat bo'lmog'i lozim, buning uchun o'z vaqtida to'yib ovqatlanishi zarur, aks holda erkak o'z xizmat va burchlarini bajara olmaydi. Yeb –ichmaydigan insoning toat-ibodat qilishga kuchi yetmaydi. Er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati yetmaydi, sog'lom farzandlarni dunyoga keltira olmaydi.[6] Mehrjon – Zardushtiylikda Mehr (mehr-oqibat va do'stlik) xudosi sharafiga o'tkaziladigan bayramdir. Bu bayram kuz faslining yig'im-terim ishlari yakunlanishi munosabati bilan nishonlanib, tabiat va hosildorlikka bo'lgan minnatdorchilik ifodasi sifatida qaraladi .[5]

Zardushtiylikda suv hayotning asosi va poklik manbai sifatida ulug'lanadi. Suvni ifloslantirish yoki isrof qilish taqiqlangan. Maxsus marosimlarda suvgaga ehtirom ko'rsatilib, u orqali ruhiy va jismoniy poklanish amalga oshiriladi .[1]

Zardushtiylikning muqaddas matnlari bo'lmish "Gatha"lar ruhoniylar tomonidan maxsus marosimlarda o'qiladi. Ushbu o'qishlar davomida insonning

axloqiy va ma'naviy tozaligi ta'kidlanadi, ezgulik kuchlari chaqiriladi. Bu marosimlar insonning ichki dunyosini poklash va uni yuksak maqsadlar sari undashga xizmat qiladi .[3] Zardushtiylikning asosiy tamoyillaridan biri ezgu fikrlar qilishdir. Ushbu tamoyil diniy va maishiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Ezgu fikrlar orqali inson jamiyatni yaxshilik tomon o'zgartirishi mumkin deb ishoniladi.[1] Zardushtiylikda marhumlarni xotirlash alohida ahamiyatga ega. O'liklar ruhlarini hurmat qilish uchun maxsus kunlar belgilanib, oila a'zolari tomonidan marhumlarning ezgu ishlari eslanadi. Ushbu an'ana orqali avlodlar o'rtasidagi bog'lanish saqlanib qoladi . [5]

Zardushtiylik axloqni dinning asosiy qismi sifatida ko'radi. Unga ko'ra, inson o'zining yaxshi niyatları va ezgu ishlari orqali hayotda muvaffaqiyatga erishishi va o'z jamiyatini yaxshilashi mumkin. Bu tamoyil jamiyatda halollik, adolat va o'zaro hurmatni kuchaytiradi .[3] Zardushtiylikda yer, suv, olov, havo, o'simliklar, hayvonlar va inson muqaddas sanaladi. Ushbu unsurlarni saqlash va ularni hurmat qilish dinning asosiy burchlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiatga zarar yetkazmaslik, uni asrab-avaylash alohida ta'kidlanadi .[5] Mubodlar (ruhoniylar) tomonidan o'tkaziladigan marosimlar diniy amallarni bajarishning muhim qismidir. Ushbu marosimlarda poklik ramzi bo'lgan oq kiyim kiyiladi va maxsus duolar o'qiladi. Olov va suvni hurmat qilish mubod marosimlarining asosiy qismidir.[2] Zardushtiylik keyinchalik shakllangan Yaqin Sharq dinlariga, xususan, yahudiylig, nasroniylik va islomga ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, oxirat, ruhni xotirlash, jannat va do'zax tushunchalari Zardushtiylikdan kelib chiqqan deb hisoblanadi.[1] Zardushtiylik o'z izdoshlarini tinchlik va bag'rikenglik tamoyillariga amal qilishga undaydi. Ushbu din vakillari boshqa diniy e'tiqodlarga nisbatan hurmatni saqlash, urush va nizolardan qochishga alohida e'tibor qaratishgan. Bu qadriyatlar zamonaviy jamiyatlarda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.[2].

]Eronliklar Zardushtni payg'ambar deb hisoblashgan. U miloddan avvalgi VII asrda yashagan ruhoniylar sinfiga mansub oilada dunyoga kelgan. Ba'zi tarixchilar uni tarixiy shaxs deb hisoblashsalar ba'zi olimlar uni afsonaviy shaxs

deb hisoblaydilar. Hozirgi kunda Zardusht afsonaviy yoki tarixiy shaxs ekanligi borasida turli xil fikrlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra Zardusht skif qabilasidan chiqqan deb taxmin qilinadi. Zardusht o'zini 40 yoshida payg'ambar deb e'lon qilgan. Keyinchalik Zardushtning shaxsiyati mifalogiyali obrazlar va g'ayritabiy fazilatlar bilan ifodalangan. Zardusht insoniyat tarixida insonlarning bu dunyo hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajagi haqidagi ta'limotni yaratgan. Bu ta'limot asosida har bir inson o'lgandan so'ng o'z qilmishiga yarasha mukofot yoki jazo topish g'oyasi yotadi Zardushtiylik dinida oliv xudo Ahura Mazda (Ormuzd) - ezgulik, haqiqat xudosi dunyoni yaratuvchisi. Shu bilan birqalikda unga qarama-qarshi Axriman (zulmat va o'limni ifodalovchi yovuzlik xudosi) ham mavjud. Ahura Mazda doimiy ravishda Axriman bilan kurashadi. Keyinchalik Ahura Mazdaning yaxshi ruhi va Axrimanning yovuz ruhi "Cheksiz vaqt"- zamon xudosi Zurvonning egizak o'g'llari ekanligi haqidagi ta'limot yaratilgan. Ularning har biri teng kuchga ega va dunyoni 3 ming yil davomida boshqaradi, so'ngra keying 3 ming yil ular o'rtasida kurash bo'ladi. Zardushtiylik dinida insoniyat tarixi 12 ming yil davom etadi va ular bosqichlarga bo'linadi. Birinchi bosqich – ezgulik sultanati bu davr 3 ming yil davom etadi. Mana shu vaqt oralig'i esa oltin davr deb nomlanadi. Ikkinci bosqich esa yovuzlik ustunlikni qo'lga kirita boshlaydi. Bu davr oralig'i esa kurash bosqichi deb nomlanadi. Uchinchi bosqich yovuzlik hukmronligi davri deb nomlanadi. To'rtinchi bosqich – g'alaba davri deb nomlanadi Zardushtiylik dini sharqda Eron va Shimoliy Hindiston hududlarigacha tarqaldi. Bundan taxminan 3500 yil muqaddam Osiyo dashtlarida paydo bo'lgan ushbu din tarixda gullab yashnagan Eron imperiyasining davlat diniga aylandi. Shuning uchun zardushtiylik dini va ta'limotini o'rghanish dunyo dinlarini o'rghanish va tadqiq qilishda alohida ahamiyatga egadir. Avestashunos olima Meri Boysning "Zardushtiylik e'tiqod urf odat an'ana va marosimlar" kitobi ushbu dinni o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz. Zardushtiylik dini shafqatsiz ta'qiblarga qaramay ming yillar davomida saqlanib kelgan din sifatida qaraladi.

**Xulosa:** Zardushtiylik dini insoniyatning eng qadimiy va falsafiy jihatdan boy e'tiqodlaridan biri bo'lib, uning tamoyillari, marosimlari va an'analari asosan ezgulikni ulug'lash va tabiat bilan uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Bu dinning asosiy g'oyasi ezgu fikrlar, yaxshi so'zlar va yaxshi amallar orqali inson va jamiyatni yuksaltirishdir. Zardushtiylik marosimlarining aksariyati insonni ruhiy va jismoniy poklash, tabiatni asrab-avaylash va jamiyatda tinchlikni saqlashni targ'ib qiladi. Olov va suv kabi tabiat unsurlarining muqaddas sanalishi, Navro'z va Mehrg'on bayramlari, Gatha o'qish va Farvardigan marosimlari bu qadriyatlarning yorqin namunasidir. Shuningdek, Zardushtiylik tamoyillari zamonaviy jamiyatga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bugungi kunda tabiatni asrash, oilaviy qadriyatlarni ulug'lash va bag'rikenglik kabi g'oyalar bu dinning madaniy merosini saqlab qolayotganini ko'rsatadi. Zardushtiylikning qadimiy tamoyillari nafaqat diniy, balki madaniy va axloqiy taraqqiyotga ham ulkan hissa qo'shgan. Shu bois, bu dinning an'ana va marosimlarini o'rganish insoniyatning tarixiy-madaniy merosini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boyqobilov, A. "Avesto" va o'zbek xalq madaniyati. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2001).
2. Yo'ldoshev, O. Avesto va zamonaviy madaniyat. Toshkent: Fan.-2002.
3. G'ulomov, S. Zardushtiylikning asosiy tamoyillari. Toshkent: Adolat. (1994).
4. Karimov, I. A. 'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent: O'zbekiston. (Avesto haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'limlar) (1999).
5. Erkinov, A. Markaziy Osiyoda diniy e'tiqodlar tarixi. Toshkent: Sharq.
6. Маковельский А. О. Авеста.-Баку, 1960.С-84 . (2000).
7. Снесарев Г.П. Реликты домусулъманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. С- 135.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. O'RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62. (2024).

9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
10. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
11. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 15-28.
12. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
13. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
14. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
15. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
16. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.

17. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
18. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
19. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.